

VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O`TKAZISHGA OID JINOYATLAR VA ULARGA QARSHI KURASHISH

Qurbonova Sevara

*Termiz davlat universiteti Yuridik
fakulteti 1-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: Tursunov Behruz

Annotatsiya: *Statistik ma'lumotlarni taxliliy natijalariga ko'ra aytish mumkinki iqtisodiyot sohasida sodir etilgan jinoyatlar soni yildan yilga oshib bormoqda. Ayniqsa, xorijiy valyutaning noqonuniy aylanmasiga oid jinoyatlar bular orasida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'z navbatida mazkur sohasida kriminalistik tadqiqotlar olib borish zarur ekanligini tasdiqlaydi.*

Kalit So'zlar: *xorijiy valyuta, valyuta qimmatliklari, "qora bozor", valyuta qimmatliklarini olish, valyuta qimmatliklarini o'tkazish, valyuta ayirboshlash, chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasi bilan to'lanadigan hujjatlar, valyutani tartibga soluvchi organlar, valyutani nazorat qiluvchi organlar.*

Bugungi kunda tergov va sud amalyotida iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlarning o'sib borayotgani kuzatilmoqda. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu sohadagi jinoyatlar 2018-yilda 6704 tani, 2019-yilda 7538 tani, 2020-yilda 10005 tani, 2021-yilda 33959 tani, 2022-yilda esa 30736 tani ya'ni shu yilda sodir etilgan umumiy jinoyatlarning 46 foizini aynan iqtisodiyotga oid jinoyatlar tashkil etmoqda.

Tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilishi va xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining kengayishi, buning natijasida valyuta qimmatliklarini

Respublikamiz hududiga kirib kelishi va undan chiqib ketishi bilan bog'liq munosabatlarning qonuniy tartibga solinishiga qaramay bu sohada sodir etilayotgan jinoyatlar soni ortib bormoqda. Xususan, mansabdor shaxslar tomonidan qonunga xilof ravishda chet el valyutasini "Qora bozor"ga chiqarish holatlari uchrab turmoqda.

Aytish mumkinki, Markaziy bank tomonidan belgilangan chet el valyutasining o'zbek so'miga nisbatan belgilangan kursining "Qora bozor"dagi kursiga nisbatan ancha pastligi va ular o'rtasidagi tafovutlar amalyotda valyuta ayirboshlash bilan bog'liq munosabatlarda qator muammolar keltirib chiqarayotgani kuzatilmoqda. Shu bois hozirgi kunda valyuta qimmatliklarining asosiy qismi qonuniy vakolat berilgan banklarning valyuta ayirboshlash shaxobchalarida emas, balki "Qora bozor"da almashtirilishi davlatning normal iqtisodiy, valyuta munosabatlariga jiddiy zarar yetkazayotgani hisobga olingan

holda, banklardagi xorij valyutasining qiymati “Qora bozor”dagi narxlar bilan o`zaro tenglashtirish borasida ko`plab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bu sohadagi jinoyatlarni tartibga solish uchun mamlakatimizda bir qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Jumladan, Jinoyat Kodeksining 3-bo`limi “Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar”ga bag`ishlangan bo`lib, uning 177-moddasi “Valyuta qimmatligini qonunga xilof ravishda olish yoki o`tkazish jinoyati” hisoblanadi. Bundan tashqari 1995-yil 21-dekabrda O`zbekiston Respublikasining “Xorijdan mablag` jalb qilish tog`risida”gi Qonuni, 1998-yil 30-aprelda O`zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to`g`risida”gi Qonuni, 2000-yil 26-mayda O`zbekiston Respublikasining “Tashqi Iqtisodiy faoliyati to`g`risida”gi qonun, 2003-yil 26-dekabrda O`zbekiston Respublikasi “Eksport nazorati to`g`risida”gi Qonun, 2002-yil 27-yanvarda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada naqd xorijiy valyuta muomalasini artibga solish choralari to`g`risiga”gi ,2013-yil 30-yanvarda “Jismoniy shaxslarga xorijiy valyutani sotish tartibini yanada liberallashtirish to`g`risida”gi nizomi, 2019-yil 15-yanvarda O`zbekiston Respublikasining “Iqtisodiy jinoyatlarga va ommaviy qirg`in qurolni tarqatishni oliyalashtirishga qarshi kurashish mexanizmlari takomillashtirilishi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida”gi Qonun, 2019-yil 22-oktabrda O`zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to`g`risida”gi Qonun va 2022-yil 14-apreldagi “Valyuta qimmatliklari qonunga xilof ravishda olish yoki o`tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Qarori qabul qilingan.

Xo`sh, valyuta qimmatliklari, bu o`zi nima? Ularni olish yoki o`tkazish deganda nima tushiniladi va bu harakatlar qaysi hollarda qonuniy hisoblanadi yoki aksincha?

2022-yil 14-aprelda qabul qilingan “Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o`tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining Qaroriga muvofiq valyuta qimmatliklari- chet el valyutasi, nominali chet el valyutasida ifodalangan qimmatli qog`ozlar va to`lov hujjatlari, norezidentlar tomonidan chiqarilgan, nominalga ega bo`lmagan qimmatli qog`ozlar, sof quyma oltin hisoblanib, quyidagilar valyuta qimmatliklari sifatida belgilangan -chet el valyutasi-muomaladagi hamda chet davlat (chet davlat guruhlari) hududida naqd to`lovning qonuniy vositasi bo`lgan pul belgilari, shuningdek muomaladan chiqarilayotgan yoki muomaladan chiqarilgan, ammo almashtirilishi lozim bo`lgan pul belgilari, chet davlatlarning (chet davlatlar guruhlarning) pul birliklarida hamda xalqaro pul birliklarida yoki hisob-kitob birliklarida bank hisobvaraqlarida va omonatlarida turgan mablag`lar; -chet el valyutasidagi

qimmatli qog'ozlar- fond boyliklari(aksiya, obligatsiya va boshqalar); -chet el valyutasi bilan to'lanadigan to'lov hujjatlari (cheklar, veksellar, akkreditiv va boshqalar).

Har qanday ko'rinish va holatdagi qimmatbaho metallar- oltin, kumush, platino va platino guruhiga kiruvchi metallar (palladiy, iridiy, radiy, ruteniy va osmiy), shunday metallardan yasalgan zargarlik va boshqa ro'zg'or buyumlari hamda ularning rezgilari bundan mustasno.

Xomashyo yoki ishlov berilgan holatdagi tabiiy qimmatbaho toshlar- olmos, yoqut, zumrad, safir, aleksandritlar, shuningdek, marvaridlar, shunday toshlar hamda ularning rezgilaridan yasalgan zargarlik va boshqa ro'zg'or buyumlari bundan mustasno.

Valyuta qimmatliklarini olish deganda- valyuta qimmatliklarini tasarruf etish imkoniyatini ta'minlaydigan valyuta qimmatliklarini olish bo'yicha g'arazli va beg'araz harakatni tushinish mumkin. Bunday qimmatliklarni vaqtinchalik saqlash, sovg'a qilish yoki boshqa beg'araz usullar orqali valyuta qimmatliklarini olish (masalan, meros olish natijasida olish) hisoblanmaydi.

Valyuta qimmatliklarini qimmatliklarini o'tkazish deganda- valyuta qimmatliklarini haq evaziga bir yoki bir necha marta mazkur buyumni tasarruf etishni ta'minlab beruvchi uchinchi shaxsga shunday harakat orqali berishni tushunish kerak.

Valyuta qimmatliklarini saqlash yoki jo'natish qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish deb hisoblanmaydi.

Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish deb, O'zbekiston Respublikasi hududida ushbu harakatlar sodir etilgan vaqtda valyuta qimmatliklarini o'rnatilgan tartiblarni buzgan holda sotib olish, sotish yoki almashtirish tushuniladi.

Chet el valyutasining ancha ko'p va juda ko'p miqdorda ekanligini belgilash masalasini hal etish tergov va sud organlari vakolatiga kiradi. Ular bu masalani hal etishda bitimlar amalga oshirilgan kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan chet el valyutasining O'zbekiston Respublikasining pul birligiga nisbatan kursidan kelib chiqishi lozim.

Fuqarolar tomonidan birinchi marotaba sodir etilgan valyuta qimmatliklarini ancha miqdordan kam miqdorda qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 170-moddasi bo'yicha javobgarlikka sabab bo'ladi. Unga muvofiq, valyuta boyliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish – valyuta boyliklari musodara qilinib, o'n besh sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga yoki ushbu Kodeksga muvofiq o'ziga nisbatan ma'muriy qamoq qo'llanishi mumkin bo'lgan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan

yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo`ladi. Valyuta qimmatliklarini olish va o`tkazishga doir ishlar davlatning barqaror iqtisodiy faoliyatini ta`minlashda juda ahamiyatli o`rin tutgani bois, bu harakatlar Jinoyat kodeksi normalari bilan ham tartibga solinadi. Xususan, Kodeksning 177-moddasiga binoan, fuqarolarning qonunga xilof ravishda valyuta qimmatliklarini olishi yoki o`tkazishi shunday harakatlar uchun ma`muriy jazo qo`llanilganidan keyin sodir etilgan bo`lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O`sha harakatlar ancha miqdorda sodir etilgan bo`lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O`sha harakatlar: a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan; b) ko`p miqdorda; v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo`lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O`sha harakatlar:

a) juda ko`p miqdorda; b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko`zab sodir etilgan bo`lsa, - besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Tayyorgalik ko`rilayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyat haqida o`z ixtiyori bilan arz qilgan va uni ochishga faol yordam bergan shaxs javobgarlikka tortilmaydi.

Valyuta operatsiyalarini va valyuta nazoratini amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2019-yil 22-oktabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Valyutani tartibga solish tog`risida"gi qonunga ko`ra, valyutani tartibga soluvchi davlat organi sifatida O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki, valyutani nazorat qiluvchi organlar sifatida esa O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan tashqari Hisob palatasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo`mitasi va Davlat bojxona qo`mitasi belgilab ko`rsatilgan.

Davlat mustaqilligini ta`minlashning eng asosiy shartlaridan biri ham uning iqtisodiyotini samarali yo`lga qo`yishdir. Bugungi kunga qadar bu sohaning har bir jabhasida jumladan, xorijiy valyuta ayirboshlash jarayonida ham qonuniylikni va tartibni o`rnatish uchun nafaqat qonunlar, qonunosti hujjatlar qabul qilindi, balkim davlatimiz, hukumatimiz tomonidan ko`plab sa'y-harakatlar ham amalga oshirildi. O`tgan yillar bilan qiyoslaganda bu sohada qonuniylik anchagina ta`minlandi, biroq butkul emas. Shu bois, bu sohaga

daxldor qonunlarni, normalarni yanada takomillashtirish va uni real hayotga to`liq tadbiiq etishga harakat qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Ma`muriy javobgarlik tog`risidagi Kodeksi
2. (22.09.1994-yil.);2) O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi (22.09.1994);
3. O`zbekiston Respublikasi "Valyutani tartibga solish tog`risida"gi Qonuni
4. (22.10.2019-yil)
5. "Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o`tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti tog`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Oliy Sudi
6. Plenumining Qarori (14.04.2022-yil).
7. Stat.uz sayti.
8. Lex.uz sayti.

